

TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” QISSASIDAGI HOLAT, BEZOVTA, NATIJASIZLIK SEMALARINI IFODALOVCHI O‘XSHATISHLAR TAHLILI

Turakulova Umidaxon Anvarovna,

University of Bussines and Science oliy ta’lim muassasasi

Til va adabiyot ta’limi kafedrası o’qituvchisi

Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Gmail: standoffabu202@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925865>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tohir Malikning “Shaytanat” qissasidan olingan holat, bezovta, natijasizlik, semalarini ifodalovchi o’xshatishlari tahlili haqida so’z boradi. O’xshatishlarni qo’llashdan ko’zlangan maqsad, adibning etalon tanlashdagi mahorati haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so’zlar: holat, bezovta, natijasizlik semalarini ifodalovchi o’xshatishlar, etalon, o’xshatish asosi, o’xshatish vositasi.

Аннотация. В данной статье анализируются сравнения, выражающие семы состояния, тревоги и безрезультатности в произведении Tohir Malik – Shaytanat. Рассматриваются художественные функции сравнений, их семантические особенности, а также мастерство писателя в выборе эталонов. Кроме того, на основе примеров анализируются такие компоненты сравнения, как основа сравнения, средство сравнения и их функциональная роль в художественном тексте.

Ключевые слова: сема состояния, сема тревоги, сема безрезультатности, сравнение, эталон, основа сравнения, средство сравнения.

Abstract. This article analyzes the similes expressing the semes of state, anxiety, and ineffectiveness in the work of Tohir Malik — Shaytanat. The artistic functions of similes, their semantic characteristics, and the writer’s skill in selecting standards (etalon) are discussed in detail. In addition, the components of simile such as the basis of comparison, the means of comparison, and their functional role in the literary text are analyzed based on examples.

Keywords: seme of state, seme of anxiety, seme of ineffectiveness, simile, etalon, basis of comparison, means of comparison.

Kirish. Tohir Malik qissalarida o’xshatishlar ijobiy yoki salbiy, quvonch, qo’rqinch, adolatsizlik, tajovuz kabi qator emotsiyaga boy o’rinlarda qo’llangan bo’lib, badiiy matnga yorqin bo’yoqlar bilan tasvir berishga xizmat qilgan. Qolaversa, o’xshatishlar keng qamrovda qo’llangan bo’lib, tabiat hodisalari, diniy mavzuga oid terminlar, hayvonot olami, osmon jismlari, o’simliklar, metall nomlari, kasb-hunarga oid terminlar, makon va zamon bilan bog’liq o’xshatishlar o’z aksini topgan. Qissalarda qo’llangan o’xshatishlar adibning nozik payqashlaridan, sinchkovligidan darak beradi. Ayniqsa, erkin o’xshatishlarning ko’pligi o’quvchi tasavvurini harakatga keltiradi. O’xshatishlarning bu turi tasviriyligi, ta’sirchanligi, ifodaviyligi va yorqinligi bilan alohida ahamiyatga ega. Noyobligi sabab kitobxon xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Adabiyotlar tahlili. Adib qissalarini o’rganish jarayonida qo’rquvni, bezovtalikni, samarasizlikni, holatni, havotirni, umidni ifodalaydigan bir qator o’xshatishlar yig’ildi. Yig’ilgan o’xshatishlarda sema bir xil bo’lsa-da, har gal yangi o’xshatish qo’llangan. Har

xil qahramonlarning holati o'ziga xos tarzda ochib berilgan. Quyida ikki va undan ortiq bir xil semali o'xshatishlarni havola qilamiz:

1. **Holat semali o'xshatishlar.** *Yaxmalakka qarshi sepilgan tuz kuchini ko'rsatgan, serqatnov ko'cha yuzini qoplagan qor qop-qora atalaga o'xshab ketgan edi* [5, 131]. *Shundan so'ng Jamshid xojasini yechintirib, badanini aroq bilan obdon artib, xuddi chaqaloqni yo'rgaklaganday yotqizib qo'ydi* [5, 124]. *Shu bois Said Qodirov kulib, payrovni davom ettirayotgan askiyachi kabi javob qildi: – Mening ustozim hech mahal yanglishmagan: qahva aqlni peshlaydi, deganmi, demak, peshlaydi. Qizdirilgan po'lat suvga solinsa toblanadi-ku, to'g'rimi?* [5, 190]. **Zindonga tushib qolganday bo'ldi** [1, 134]. *Darrov javob qaytarmagani uchun Manzura bu qizlarni o'zi topib, o'zi bemaslahat kelin qilayotganday eridan baloga qoldi* [3, 197]. Birinchi misoldagi *atalaga o'xshabo'xshatishi* predmetning holatini tasvirlash uchun qo'llangan. Atala o'zbek xalqining milliy taomlaridan bo'lib, uni chaynash shart emas. Atala un va yog'dan tayyorlanadi va qadimda, asosan, farzand ko'rgan ayollarga, yotgan kasallarga, tishi yo'q qariyalarga tayyorlab berilgan. U suyuqqa qaraganda quyuq, quyuqqa qaraganda suyuq shaklda bo'lib, o'zbek xalqida bo'sh, o'zini eplolmaydigan, tengqurlariga qaraganda mustaqil ovqatlanolmaydigan, erkin yurolmaydigan bolalarga *atalaga o'xshagan, atala ichgan, atala* kabi ta'riflar qo'llanadi. Asarda keltirilgan bu o'rinda esa asfalt yo'ldagi erib ulgurmagani, kirlangan qorga nisbatan qo'llangan. O'xshatish juda o'rinli qo'llangan. Adib kirlangan qorni atalaning rangiga qiyoslash bilan kitobxonga yog'da qovurilgan unning rangini ham eslatmoqda. Chunki un avval oq rangda bo'lib, yog'da qovurilsa, xuddi kirlangandek holga kiradi. Yozuvchi bu o'xshatishni bejizga qo'llamagan, chunki qor ham avval oq rangda bo'lib, mashina g'ildiraklari bosaverganidan qoramtir tusga kiradi. Adibning "Shaytanat" qissasida milliylikni anglatuvchi ko'plab o'xshatishlar mavjud. Ularning har biridan yangi ma'no uqish mumkin. Masalan, yana bir misolda *xuddi chaqaloqni yo'rgaklaganday yotqizib qo'ydi* o'xshatishi qo'llangan bo'lib, bunda ham o'zbek xalqining bolani yo'rgaklash odati ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Bola, odatda, tug'ilgandan to uch-to'rt oylik bo'lguncha yo'rgaklanadi. Yo'rgak chaqaloqning gavdasini to'g'ri tutishi uchun juda ham zarur bo'lib, bundan tashqari u bolaning issiq yotishini, cho'chimasdan, oyoq-qo'llarini qimirlatganda uyg'onib ketmasdan uxlashini, o'z qo'li bilan yuzini tirnab yubormaslikni ta'minlovchi eng qulay vosita bo'lgan. Bundan tashqari qadimda yosh bolalarga kiyim-kechak kam bo'lgani uchun ham momolarimiz yo'rgakdan keng foydalanishgan. Qissada Asadbekka nisbatan qo'llangan bu o'xshatish uning uchun qilinganidan xabar berib turibdi. Asadbekni bezgak tutib, har qancha o'ransa ham, orom topolmaydi, shunda Jamshid unga spirt surkab uni yo'rgaksimon qilib o'rab qo'yadi. Shu o'rinda Asadbekning holatini yozuvchi yo'rgaklangan bolaga qiyoslash orqali *ojizlik, mutelik* kabi semalarni namoyon qiladi. Adib qo'llagan o'xshatishlarni tahlil qilar ekanmiz, uning barcha sohada bilimdon ekanligiga guvoh bo'lamiz. Navbatdagi o'xshatish ham ana shunday bo'yoqdorligi bilan ajralib turadigan o'xshatishlardan: "Payrovni davom

ettirayotgan askiyachi kabi javob qildi” bu Said Qodirov bilan Zohid suhbatidan olingan parcha. Said Qodirovning Zohidga suhbat orqali hujum qilishi payrovni davom ettirayotgan askiyachiga qiyoslangan. “Askiya o‘zbek xalqining qadim tarixga ega bo‘lgan xalq og‘zaki ijod turi hisoblanadi. Unda ikki va undan ortiq kishi ishtirok etib, birlarining savollariga o‘ta tezkor va hozirjavoblik bilan, lo‘nda, serma‘no, ta‘sirli, serqochirim tarzda javob qaytaradilar [1]. Payrov esa “Askiya uchun tanlab olingan, askiyachilar birin-ketin davom ettiradigan ma‘lum mavzu; askiyaning ijro uslubi” (O‘TIL, III, 203). Ma‘lumki, askiya so‘z o‘yiniga asoslangan bo‘lib, unda qo‘llangan so‘zlar mutlaqo boshqa ma‘noda qabul qilinadi. Ana shundagina askiya san‘atiga tushunish va zavqlanish mumkin. Adib ham ayni o‘rinda xuddi shunday yo‘l tutgan va Zohidga nisbatan aytilgan gaplarda kinoya, ta‘qib, o‘ziga xos achchiq kulgu borligi sabab mana shu o‘xshatishni qo‘llaydi. Adib qissada qo‘llagan o‘xshatishlariga nazar tashlar ekanmiz, o‘zbek xalqining urf-odatları, turmushi, qarashları, inonchları kabilar o‘z aksini topgan. Qissada uchrovchi *maslahatsiz kelin qilganday* o‘xshatishi ham ana shunday o‘xshatishlar sirasiga kiradi. Xalqimiz odatlariga ko‘ra kelin qilish katta tajriba talab etadi. O‘zbek xalqi uchun qadimdan oila muqaddas dargoh sanalgan. Yaxshi kelin esa ana shu muqaddas dargohning bir qismi bo‘lib, uning xatti-harakatlari ko‘p narsani belgilaydi. Kelin qilishda oila a‘zolari kengashgan holda, bamaslahat surishtirib, kelin bo‘lmishning yetti ajdodini, ayniqsa, onasining xarakteri, eri tomon bilan bo‘lgan munosabatlari, jamoasidagi obro‘si, ro‘zg‘ordagi tutumi, eriga bo‘lgan hurmati kabilar hisobga olinadi. Bu borada o‘zbek xalqining qator maqollari ham bor: *Umr savdosi qiyin savdo; Yaxshi ro‘zg‘or – Jannat, Yomon ro‘zg‘or – do‘zax; Bo‘z yaktak qichitar, yaxshi xotin tinchitar; Yomon xotin olganning yovi uyida; Ro‘zg‘or ziynati – o‘tin, uy ziynati – xotin* (O‘XM). Ushbu xalq maqollarida kelin tanlash, kelinning o‘rni kabilar aks etgan va xalqimizning necha ming yillardan beri hosil bo‘lgan hayotiy tajribalari o‘z ifodasini topgan. Oilada biror kattaroq o‘zgarish qilinadigan bo‘lsa, oilaning kattalari, qarindosh-urug‘lar bir joyga to‘planishib maslahat qilishgan. Bunday maslahatlarda palov damlanib, bir qarorga kelingan. Ana shu odatga xalqimiz “Maslahat oshi” deb nom bergan. Yaqinlar bilan maslahatlashish o‘zbek xalqi uchun yaxshi odatlardan hisoblanadi, shuning uchun xalqimizda *Maslahatli to‘y buzilmas; Maslahatsiz turmush to‘ydan keyin buzilar* (O‘XM) kabi maqollar paydo bo‘lgan. Maslahatsiz qilingan har qanday ishning tashvish keltirishi tajribalarda sobitdir. Asarda qo‘llangan bu o‘xshatish Manzuraga qo‘llangan bo‘lsa ham, aslida o‘g‘illariga kelin topib xotini bilan maslahatlashmay qaror qabul qilgan Asadbek edi. Erining Germaniyada yashaydigan bir boyning qizini kelin qilish haqidagi xabaridan Manzura hayratda qoladi. Undan tashqari Asadbek bu yangilikni telefon orqali aytayotgan edi. Manzuraning o‘ylanib qolganidan Asadbekning jahli chiqadi. Asadbekning jahlini chiqargan odam baloga qolishi tayin. Yozuvchi bu o‘rinda ayyorona o‘xshatish qo‘llab, maslahatsiz kelin qilishning baloga teng ekanligini, kelinni Asadbek tanlayapti-yu, “Surishtirmasdan qilmaylik”, degan gapi uchun Manzura baloga yo‘liqmoqda. Adib ham

umr savdosini maslahatsiz yaxshilikka olib bormasligini mana shu o'xshatish orqali eslatib ketgan.

2. **Bezovta semali o'xshatishlar.** *Chuvrindi uning tashvishini tushundi – ko'ngli bolasida. Bu yerda parto'shak solib bersang ham tikonzorda yotgandek bo'ladi* [3, 169]. *Anvar ham yotdi, ammo ostiga tikonli to'shak solinganday orom topmadi* [3, 317]. *Ikki soat davomida u restoranda emas, balki tikonlar ustida ishtonchan o'tirganday bo'ldi* [5, 198]. *Anvar shuni o'ylasa xuddi birov tirnoqlarini omburda sug'urayotganday azob chekardi* [2, 266]. *Zindonda azob chekayotgan bandi kabi nola qilaverdi* [2, 240]. *O'g'illarini Moskvada qoldirib kelganidan beri tutqun qush singari potirloyotgan yuragi tag'in ham yorilib ketmaydi* [5, 294]. *Manzura bu mojaro erining foydasiga hal bo'lganini bilib tursa ham igna ustida o'tirganday halovatini yo'qotdi* [5, 300]. Inson uchun bezovtalik eng og'ir holat hisoblanadi. Bunday paytda uyquning kelmasligi, tomoqdan ovqatning o'tmasligi, bir joyda o'tirolmaslik kabi salbiy holatlar kuzatiladi. Adib asarlarida ana shunday tasvirlar uchun betakror o'xshatishlar qo'llaydi. Ulardan ba'zilarini tahlil uchun saralab oldik. *Tikanzorda yotgandek* o'xshatishi bezovtalikni tikonlar ustida yotishga qiyoslab, har bir tikonning badanga sanchilishi bezovtalikka sabab bo'lgan holatga ishoradir. O'zbek xalqi bunday holatga tushgan odamlar uchun *tikan ustida o'tirmoq, igna ustida o'tirmoq, cho'g'ning ustida o'tirmoq, ichini it tirmalamoq, ich-etini yemoq, o'zini qo'yarga joy topolmay* kabi iboralarni qo'llaydi. Adib bezovtalikni tikanzorda yotmoq bilan qiyoslagan. Tasavvur qilinsa, tikanzorda yotishni o'ylashning o'zi bezovtalik qay darajada azob ekanligini his ettiradi. *Tikanli to'shak solinganday orom topmadi* o'xshatishi ham aynan shu ma'noda qo'llangan. To'shak o'zbek milliy buyumlaridan bo'lib, yotish uchun eng zarur ashyo hisoblanadi. Adib shuning uchun ham tikonli to'shak birligini qo'llaydi. Sababi odam uxlamasa ham tunni yotib o'tkazadi, yotish toshaksiz bo'lmaydi, to'shakning tikanlardan bo'lishi esa o'ta azobli holatdir. Bezovtalik ham uyqu bermaydi, ham tikondek badanning hamma yog'iga sanchilib-sanchilib turadi. Tikan so'zini eshitgan har qanday kishida salbiy tasavvur uyg'onadi, o'zbek adabiyotida "*Gulni gul dermi kishi, gulning tikoni bo'lmasa*" satrlari xalq qo'shiqlarida uchraydi. Gul tikani bo'lmasa gul emasmi? Gul – qiz, tikan-uning nozi, qaysarligi. Yoki Gulni gul qilgan uning tikani (ijobiy ma'noda), ya'ni gul ochilguncha tikani uni himoya qilgan kabi maqollar ham uchraydi. Tikanning inson tanasiga kirishi kishiga qay darajada azob bersa, bezovtalikdan keladigan azobni ham adib undan kam emasligini shu o'xshatish orqali ta'kidlagan. Yozuvchi bezovtalikni qator o'xshatishlar bilan qiyoslaganki, yana bir o'rinda *zindonda azob chekayotgan bandiga* o'xshatgan. Zindon haqida bolalikda eshitgan xalq ertaklari orqali tasavvurga ega bo'lganmiz. O'zbek xalq ertaklarida zindon qop-qorong'i chuqur yerto'laga o'xshash bo'lib, hech qayeridan chiqishning ilojisi yo'q, undagi bandi ochlikdan o'lishi haqida aytiladi. Yozuvchi bu o'xshatishni tanlaganda zindondagi ana shu salbiy xususiyatlarni asos qilib olgan. Bezovtalik ham kishining ko'nglini zindondek qorong'ulashtirib, bandidek xalovatsiz qilib qo'yadi. Navbatdagi o'xshatish ham o'zgacha

xarakterga ega. Bu o‘xshatish ham tahlil talab o‘xshatishlardan bo‘lib, o‘zbek xalqining betakror xislatlari bilan bog‘liq. Qissalarda qo‘llangan *xuddi birov tirnoqlarini omburda sug‘urayotganday azob chekardi* o‘xshatishi, eng avvalo, o‘zbek xalqining “*Etni tirnoqdan ajratib bo‘lmaydi*” (O‘XM), degan maqolini yodga soladi. Bu maqolda aka-ukalar, opa-singillar, umuman, jigar deb ataluvchi yaqinlar orasidagi oqibat haqida so‘z yuritilgan. Xalqimizning zukkoligini qarangki, inson tanasidagi eng yaqin, bir-biriga qattiq yopishgan joy et bilan tirnoq, ana shu et bilan tirnoqning ajratilishi kishi jismiga qanchalik kuchli og‘riq bersa, yaqinlarning bir-biridan judo bo‘lishi ham kishi ruhiyatiga jismdagidan ko‘proq azob beradi. Aslida ajratishning iloji ham yo‘q. Shuning uchun bo‘lsa kerak, yaqinlarni et bilan tirnoq, jigar deb atashadi. Jigar deyilishiga ham sabablar ko‘p. Jigar ichki a‘zo bo‘lish bilan birga, bag‘ir ma‘nosi ham bor (O‘TIL, II, 81), shuning uchun ham yaqinlarga nisbatan jigar so‘zi qo‘llanadi. O‘zbek tilida farzandni jigar so‘zi bilan bog‘lab jigarband, jigargo‘sha deyiladi. Kishi bag‘riga duch kelgan insonni bosa olmaydi, bag‘ir faqat yaqinlargagina mehr tuyg‘usi ulashiladigan joy. Qissada qo‘llangan o‘xshatishga to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘xshatish Anvarga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, Zunnuniydan qolgan qo‘lyozmalar ko‘p yillar qidiruv va tintuvlardan omon qolib, keyinchalik farzandlarning oqibatsizligi sabab yoqib yuborilgan, axlatxonlaraga tashlangan, Anvar esa ana shu oqibatsizlikni o‘ylaganida tirnoqlarini omburda sug‘urayotgandek bo‘ladi. Aslida, tirnoqni omburda ham sug‘urib bo‘lmaydi, buni tasavvur qilishning o‘zi og‘ir, ammo adib yaqinlar orasidagi oqibatning buzulishini ana shunday og‘ir holatga qiyoslamoqda. Biz, o‘zbeklarda, aka-uka, opa-singil, ota-ona va farzand, qisqa qilib aytganda, oilada mehr-oqibat eng asosiy o‘rinda turadigan tuyg‘ulardir. Shuning uchun ham o‘zbek oilalari mustahkamdir. Tuyg‘uni o‘lchashning iloji yo‘q, ammo insonda boshqa tuyg‘ularga qaraganda mehr-oqibat balandroq bo‘lishi kerak.

3. **Natijasizlik semali o‘xshatishlar.** *Asadbekning hozirgi jerkib baqirishi sahrodagi qumga singgan tomchiday beta’sir bo‘ldi* [3, 102]. *Sizning hamlangiz ular uchun pista chaqib tashlanganday bir gap* [3, 344]. *Soliyev “Qo‘y, bu ahvolda ichma”, demoqchi bo‘ldi-yu, aytajak gapi xarsangtoshga otilgan kesak kabi naf bermasligini bilib, tilini tiydi* [5, 102]. *Bu istaklarning amalga oshuvi yomg‘ir tomchilarini iziga qaytarish kabi ekanini esa fikr qilmasdi* [5, 396]. *Buzuq tarozida narsa yuz tortilsin, ming tortilsin – bir xil raqamni ko‘rsatib turgani kabi uning aql tarozusi ham yagona fikrni ta’kid etardi: Asadbek bilan Chuvrindining harakatlarida o‘ziga qarshi holatni ko‘rardi* [4, 143]. “Shaytanat” qissasida samarasizlik, natijasizlik kabi semalarni ifodalovchi o‘xshatishlar ham bir talay. Ularda mazmun bir xil bo‘lsa-da, etalonlar kutilmaganligi, yangiligi bilan xarakterilidir. *Sahrodagi qumga singgan tomchiday* o‘xshatishida amalga oshirilgan harakatning samarasi shu qadar pastki, adib bu holatni, sahro va tomchini bir-biri bilan taqqoslashni kitobxon ixtiyoriga qoldirmoqda. Chunki sahro bepoyon suvsizlik, tomchining sahroga yog‘ishi esa sarobdek gap. O‘zbek xalq maqollari orasida tomchining

qudrati haqida qator maqollar keltirilgan: *Teshik tomga tomchi yov, Tomchi toshni teshar; To'kilgandan tomchilagan yomon* kabi. Ammo suvni shimib olish borasida qumga yetadigani yo'q. Shuning uchun ham adib tomchiga sahroni zid qo'ygan va go'zal o'xshatish hosil qilgan. Xuddi shunga o'xshash yana bir o'xshatish kelgan. *Bu istaklarning amalga oshuvi yomg'ir tomchilarini iziga qaytarish kabi ekan.*

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda tavsiflash, qiyoslash tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Adibning yangilikka boy bunday o'xshatishlari kitobxonni beixtiyor tasavvur qilishga chorlaydi. Uning istaklari hech qachon amalga oshmaydi deyishdan ko'ra qo'llangan o'xshatishning ta'sir kuchi ancha yuqori. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devoni lug'ot at-turk" asarida yomg'irga nisbatan "*adashmaydigan mergan*", deya ta'rif beradi. Mergan o'z o'qini ortga qaytarishi mumkinmi? Yo'q, albatta. Buning iloji yo'q. Adib ana shunday ilojsiz, ushalmaligi muqarrar bo'lgan orzu haqida aytmoqda. Navbatdagi o'xshatish ham besamar ketgan harakatning bir ko'rinishi bo'lib, adib uni ham yangicha tasvirlagan: *aytajak gapi xarsangtoshga otilgan kesak kabi*. Xarsangtosh va kesakning hajmida ham, qattqlik darajasida ham katta farq bor. Har ikkala sanalgan xususiyat bilan solishtirib bo'lmaydi. Xarsangtosh kesakdan ustun, adib shu sababli har qanday kitobxonni kesak va toshni yaxshi farqlay olishini bilganidan shunday o'xshatish qo'llagan va kitobxon xulosasiga havola qilgan. Xarsangtoshga otilgan kesakning holi nima bo'ladi? Albatta, parchalanib ketadi. Adib etalon tanlashda juda zukkolik bilan tafakkur qiladi. O'ylab qaralsa, kesak juda mo'rt jism. Uning salgina namda erib ketishi, sal qattiq tegilsa, parchalanib ketishi nazarda tutilib xalq maqollarida "*Ustozsiz shogird – jonsiz kesak*", "*Ishqsiz eshak – dardsiz kesak*" kabi maqollar mavjud. Demak, kesakka nisbatan past baho o'zbek xalqi tasavvurida o'z aksini topgan. Kengaygan birikmali etalonda kesak va toshning qiyoslanishi, mo'rt, tinglovchining ichish haqidagi qarori toshdek mustahkam, so'zlovchining uni ichishdan qaytarishi esa kesakdek mo'rt. Xuddi yuqorida sahro bilan tomchining taqqoslanishiga o'xshaydi.

Xulosa. O'rganilgan qissada juda ko'p o'xshatishlar qo'llangan. Biz maqola uchun faqat madaniy bo'yoqqa ega bo'lganlarinigina tahlilga oldik. Undan tashqari bu qissadagi o'xshatishlarning yana bir xarakterli jihati shundaki, qo'llangan o'xshatishlarning deyarli hammasida asos sifatida fe'l so'z turkumi ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham bo'lsa kerak, qissada turg'un o'xshatishga qaraganda erkin o'xshatishlarning miqdori salmoqli. Aytish lozimki, qissada bir predmet, shaxs, yoki holat bir necha marta o'xshatilgan o'rinlar ham bo'lib, har gal yangi o'xshatish hosil qilishga erishilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Askiya>.
2. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 1-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2013. – 383 б.
3. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2013. – 382 б.
4. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 3-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2013. – 382 б.
5. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 4-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2013. – 495 б.
6. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 5-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2013.